



THE PLACE OF ARTISTIC SPEECH IN INTERPRETATION

Abdullaev Hotamjon Hamroevich¹

¹ Student of Karakalpak State University

Nukus, Uzbekistan

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4897877>

ARTICLE INFO

Received: 20th May 2021

Accepted: 25th May 2021

Online: 30th May 2021

KEY WORDS

Novel, artistic intention, image, author's speech, monologue, dialogue, polylogue.

ABSTRACT

The article analyzes and interprets Shukur Xolmirzaev's novel "Dinosaur" and considers the role of artistic speech in the individualization of the image. The novel analyzes the image of a woman, her nature, worldview, place in society, and the impact of social environment on a woman's character.

TALQINDA BADIY NUTQNING O'RNI

Abdullaev Hotamjon Hamroevich¹

¹ Qoraqalpoq davlat universiteti talabasi

O'zbekiston, Nukus shahri

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 20-May 2021

Ma'qullandi: 25-May 2021

Chop etildi: 30-May 2021

KALIT SO'ZLAR

Roman, badiiy niyat, obraz, muallif nutqi, monolog, diolog, polilog.

ANNOTATSIYA

Maqolada Shukur Xolmirzaevning "Dinozavr" romani tahlil va talqin qilingan bo'lib, obrazning individuallashuvida badiiy nutqning vazifasi predmet qilib olingan. Romanda ayol obrazi, uning tabiati, dunyoqarashi, jamiyatdagi o'rni hamda ijtimoiy muhitning ayol xarakteriga ta'siri tahlil qilingan.

Badiiy adabiyotda, ayniqsa o'zbek romanchiligida ayol obrazida bardoshlilik, chidamlilik, kamtarlik, munislik, oilaparvarlik va poklik timsoli aks etadi. Ular sadoqat, poklik va asosiysi ona timsoli. Ayol ijtimoiy hayotda olima, muhandis, shifokor bo'lish bilan birga hatto, quruvchi va mexanizator ham edilar. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ayollarimiz hayotdagi og'riqli ijtimoiy muammolar adabiy jarayonda hamma davrda ham dolzarb bo'lib kelgan.

O'zbek nasrining taniqli ustasi Shukur Xolmirzaevning "Dinozavr" romani o'z davrida adabiy-badiiy talqinning yangi

namunasi edi. Roman boshdan oxirigacha qahramon va personajlarning o'zaro suhbatidan, diologlardan iborat. Shaxlo obrazi syujet rivojida markaziy obrazlardan bo'lib, suhbat jarayonidagi muhokama va mulohazalarda faol ishtirok etadi. Ushbu jarayonda yozuvchi poliloglardan unumli foydalanadi.

"Polilog(yunon, poli-ko'p, logos-so'z) – asarda uch va undan ortiq personajlarning bahs-munozaralari, tortishuvi, savol-javobi. Adabiy asar tilida monolog va diologlar qanchalik katta rol o'ynasa, polilog ham g'oyatda ahamiyatlidir"[2. 177-bet].



Romanda Mahkam, Shahlo, Adham, Abzal aka, ona va Sobit o'rtalarida bahsmunozaralar, tortishuvlar bo'lib o'tadiki, bu jarayonda ularning saviyasi, ong darajasi, ruhiyatida kechayotgan bezovtaliklar, munosabat va yondashuvlar namoyon bo'ladi. Suhbat asosan oz'lari yashayotgan davr, shu davrnign dolzarb masalalari atrofida bo'ladi.

- Balli, - dedi Abzal aka. – Savdo – mardlarning ishi. Payg'ambarimiz Muhammad sallolohi vasallom Xadicha onamizning mollarini sotish uchun...

Mahkamning xayolini yana "nimadir" tortib, uning mag'zini chaqishga tirisharkan, tiliga yana o'sha isqoti so'z keldi: "moslashuv".

- Ha-ha, - dedi Abzal aka Xadicha onamizning boyib ketishlari – payg'ambarimizning sa'yi-harakatlaridan ekaniga nuqta qo'yib. – Mullo Mahkam, men tushundim, ul mayda ishlar sizga munosib emas...

- Bo'lmasa, nimani munosib ko'rar ekanlar? – dedi Shahlo beparvolik bilan: Zero, payg'ambarimizki savdogar bo'lgan va xotinlarini boyitib yuborgan ekanlar, demak, savdo ahlining ishi-joiz, jumladan, o'zining o'qtin-o'qtin xorijga chiqib kelishi ham – ayni muddao: bu yo'rig'da uyalmaslik, balki faxrlanish lozim, erining bu kasbga panja orqasidan qarashiga esa – "eskilik sarqiti", ya'ni, sho'ro ideologiyasining xususiy savdoga dushmanligi ta'siridir, binobarin, erining oyoqlari "u tomonda qolgani" rost-ana shunga amin bo'lgan edi.

- Shahlo quloq bering, - dedi Mahkam...

- Maning bu yerda o'tirishim shartmi?

- Eshitishingiz shart [1. 25-bet].

Badiiy asarda qahramonlarning o'z-aro suhbatlarini va qo'yilayotgan muammo atrofidagi fikr-mulohazalarning mohiyatini islomdan izlash uslubi o'sha davr adabiyoti uchun yangicha konsepsiya edi. Ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy masalalarning

diniy-ma'rifiy asoslarda talqin etilishi yozuvchi uchun ham katta jasorat edi. Haqiqatda o'sha davr kishilari ruhiyatida dahriylik va diniy e'tiqod kurashi ketardi. Shaxsga sig'inish, qatog'on, turg'unlik davrlarida xalq ommasi ongli yashash tarzidan va adolatli ijodiy mehnat faoliyatidan chalg'itilib, o'ta tuturuqsiz "Sen dindorsan, sen ziyolisan" degan tashviqot bilan shug'ullanildi. Dinga eskilik sarqiti sifatida munosabatda bo'lindi. Din xalq turmushidan sug'urib olib tashlangan edi.

Ko'rinadiki polilogda, savdo va bozor masalalari diniy-islomiy nuqtayi nazardan talqin qilinib, uning xalq ijtimoiy turmushi uchun vojibligi ta'kidlanmoqda. Mahkam obrazida sobiq tuzum aqidalariga ishongan, aldangan kishilarning portreti chiziladi. Ammo, u sobiq tuzum ideologiyasiga mukkasidan berilgan mutassib emas, u yangi paydo bo'layotgan ijtimoiy munosabatlarning ongli ishtirokchisi hamdir. Bu diologda ham Shahloning eriga bo'lgan munosabati "eskilik sarqiti", "oyoqlari u tomonda qolgan" singari salbiy nutq ohanglarida o'z aksini topgan. Poliloglar yanada davom etib, jamiyat va millat darajasidagi muammolar talqinga tortiladi.

- Kelinglar "Komil inson" haqida gaplashaylik.

- Gapiring, - dedi Shahlo.

- Rahmat... Abzal aka, man bir narsag batamom ishonamanki, "komil inson"ning fazilatleri umuminsoniy sifatlarga uyg'un kelishi kerak...

- Haqqat rost, - dedi Abzal aka. Na o'yechan tortib; - faqat ahli musulmon ekanligimizni ham unutmashimiz lozim – deya ilova qildi.

- Albatta, - dedi Mahkam, buning ustiga bizning "komil inson"da milliy jihatlarimiz ham mumkin qadar to'laligicha namoyon bo'lishi lozim...

- Ayni haqiqat.



- Xo'p, gap shundoq ekan...
Gazetangizda eng komil insonlar hisoblanmish – so'fiylar to'g'risidayam materiallar boshladimi?

- Ha... Ularning hikmatli so'zlari, onangiz aytganlaridek, bashoratlari, hayot tarzlaridan iborat hikoyalar... bosib boriladi.

- Xo'sh, ularning halokatlari, ayrimlarining terisi shilingani va buning sabablari to'g'risida-chi?

- Mahkamjon...

- Nima?

Abzal aka og'rinib, jamoaga qarab oldi. So'ng hijolatomuz mingg'irlab:

- Hallojning terisi shilingan bo'lsa, bunga o'zi aybdor, - dedi. – Kim unga “anal haq” – degin debdi... Bu g'irt shakkoklik, Mahkamjon.

- Nima uchun? – Mahkam “Prima”dan tutatib oldi. – Xo'sh, “man haqman” degani uchunmi?

- “Men xudoman” degani-da bu, uka...

- Abzal aka boshini ko'tardi.

Ona quti uchib yoqasini ushladi. Shahlo o'qrayib qoldi, Adham karaxt. Sobit baqrayib qolgan edi. Keyin ular birdaniga Mahkamga qarashdi.

Mahkam siniq kulimsiradi.

- Alloh yer yuzidagi barcha jonivorlar, giyohlar, jumladan, insonni ham o'z nuridan yaratgan. Shundoqmi, Abzal aka? Shundoq bo'lsa, bu mahluqotu mavjudotning har bittasida Allo-Taoloning bir ulushi, aytish mumkinki, shakily bormi? Bor, albatta. Gap shundoq ekan. Mansur Halloj: “Men – haqman!” degan bo'lsa, nima bo'пти? Bu uning, qaytanga Allohga yaqinligini anglatmaydi-mi?[1. 25-bet].

Polilog jarayonida uchta avlod vakillari ishtirok etadilar. Keksa avlod – Abzal aka, Mahkamning onasi, o'rtanchi avlod – Mahkam, xotini Shahlo, ukase Adham. Shuningdek, kelajak avlod – Mahkam bilan Shahloning yolg'iz o'gli Sobit. Muammolar

tahlili va talqini katta avlod bilan o'rta avlod o'rtasida kechadi. Albatta, muhokama va munozaralarga ayol obrazi aralashadi. Kichik avlod Sobit diologlar jarayonida faqat eshituvchi va kuzatuvchi obraz. Obrazlarning nomlanishida ham mantiq bordek, ko'rinadi. Abzal(katta avlod) – Mahkam(o'rta avlod) – Sobit(kelajak avlod). Milliy o'zligimizga, qadriyatlarimizga tayanib, o'rtanchi avlod Mahkam tursa(ya'ni shu davrdagi faol qatlam), kelajak avlod Sobit qadam tashlashi muqarrar – degan g'oyani ilgari surayotgandek seziladi.

So'fiylar, din, haqidagi suhbat-muhokamalardan keyin quyidagi monolog fikr mulohazalardan chiqarilgan xulosani anglatadi. “Mahkam xursand: Abzal akani “yo'ldan urgandek” tuyar-zavqlanar, ayni paytda uning o'zidayam “urilish”ga moyillik borligini his etar, umuman, asar maydonida emas, mazkur hayotda bitta shaxs-shoirni asliga qaytarish uchun beixtiyor harakat qilganidan ajabtovur qanoatda edi.

Ha, aytish ham lozim. Odam o'z-o'zidan insonga aylanib qolmaydi. Bu nozik mahluq o'zgarishlarga o'ta moslashuvchan bo'ladi. Shuning uchun asl qiyofasini yo'qotadi... Bu – kuchsizlik!

Darvin? Padarla'nati Darvin buning aksini isbotlab qo'yganda.

He-e, hayot – rang-barang deydilar. Birovning hayoti birovga andoza bo'lolmaydi.

Voy-bo'y, o'g'riga – “o'g'ri” – desang, chavoqlaydi. G'arga – “g'ar” – desang, yoqangdan oladi. Demak, har qanday buzuq kimsa ham yaxshi bo'lib ko'rinishini istaydi: demak, inson tabiatda yaxshi bo'lib ko'rinishga tug'ma ehtiyoj bor.

Mahkam bu “kashfiyot”dan qanoatlanib, shu bilan birga dilini hargiz zirqiratib turgan hol – “Odamlarning o'zga yo'lda ketishayotgani”ni payqamaganga olib, aroqdan piyolaga quyarkan...”[1. 28-bet].



Ushbu monologning boshida va oxirida muallif nutqi qo'llanilgan. Dastlabki, ya'ni boshida keltirilgan muallif nutqi vaziyatni diologning oldingi oqimi bilan bog'lab keyingi rivojiga yoki Mahkamning ong-tafakkurida muayyan xulosa chiqarishiga imkoniyat ochib bergan. Bundan tashqari muallif nutqi ushbu bobdagi bo'limlarni va diologlarni bir-biriga mantiqan ulab, bir-butun yaxlitlikni hosil qilgan. Oxirida keltirilgan muallif nutqi(hikoyachi nutqi) diologlardan kelib chiqadigan oxirgi xulosani anglatganday seziladi. Ya'ni Mahkam "odamlarning o'zga yo'lda ketishayotgani"ni his qilganday bo'ladi. Shu joyda yozuvchi o'z pozitsiyasini asar badiiy tafakkur jarayoni bilan bog'lagandek ko'rinadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Sh.Xolmirzaevning "Dinozavr" romanida bosh qahramon Mahkam obrazi bo'lsa-da, uning xotini Shahlo obrazi ham markaziy obrazlardan biri. Chunki, asarning barcha voqealari dinamikasida ham muhokama va mulohazalar jarayonlarida ham Shahlo obrazi ishtirok etadi. Hatto, bu obraz yangi zamonga moslashib ulgurgan, zamonaviy savdogar ayol sifatida gavdalanib boradi. Asar syujetining mantiqiy rivojidan va voqelikning psixologik tasviridan shuni anglash mumkinki, ayolni – savdogar qilgan, yangi muhitga moslashtirgan, yangi ayol qiyofasining paydo bo'lishiga sababchi bo'lgan, bu real ijtimoiy muhitning o'zi. Yangi ijtimoiy munosabatlar – yangi ayol obrazining yaratilishiga zamin yaratgan, deyishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shukur Xolmirzaev. Dinozavr. "Yoshlik jurnali" 4-son. Toshkent, 1996.
2. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. "O'zbekiston". Toshkent, 2002.